

Termizda yana bir zamonaviy xususiy klinika o'z faoliyatini boshladi



So'nggi yillarda mamlakatimiz tibbiyot tizimida xususiy sektor ulushini oshirish, uning huquqiy mexanizmlarini yaratish, ularga keng imtiyozlar taqdim etilayotgani natijasida bu yo'nalishdagi shifoxonalar soni oshib bormoqda.

Ana shunday e'tibor samarasida bugun Termiz shahrida foydalanishga topshirilgan "Hospital Sultan" xususiy klinikasini qurish, jihozlash ishlariiga 35 milliard so'mdan ortiq miqdorda investitsiya kiritildi. Bu yerda 50 ga yaqin yangi ish o'rni yaratilib, statsionar sharoitda davolanish uchun 60 ta o'rin tashkil etildi.

Ushbu tibbiyot muassasasida kasallikkarni eng yuksak texnologiyalar vositasida davolash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Klinikaning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinnbosarlari, sog'liqni saqlash boshqarmasi, tibbiyot muassasalari va keng jaoatchilik vakillari ishtirok etib, yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati